Zulfiyaxonimning 110-yilligi keng nishonlandi

// 01.03.2025
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/zulfiyaxonimning-110-yilligi-keng-nishonlandi

1-mart – O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova tavallud topgan kun yurtimizda har yili keng nishonlanadi.

Bugun poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan shoira tavalludining 110-yilligi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda davlat organlari va tashkilotlari, keng jamoatchilik vakillari, ijodkorlar, talaba-yoshlar, jumladan, “O‘zkimyosanoat” AJ hamda tarmoq korxonalarining xodimalari ishtirok etishdi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirda Zulfiya ijodining hozirgi kundagi ahamiyati, uning jahon adabiyotida tutgan o‘rni haqida so‘z bordi. Ijodkor yoshlar tomonidan she’r va kuy-qo‘shiqlar ijro etildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ jamoasi ham ushbu ma’naviy-ma’rifiy tadbirda faol ishtirok etdi. Zulfiya Isroilova haykali poyiga gulchambarlar qo‘yilib, shoira xotirasiga hurmat bajo keltirildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati